

KELAJAK AVLODNI TARBIYALASHDA ZAMONOVIIY VA XALQ MUSIQA SAN'ATINING O'RNI

Esemuratov Baxtiyar Sagidullayevich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Nukus filiali "Folklor etnografiya" kafedrası dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15252775>

Annotatsiya. Bu maqolada zamonoviy kuy-qo'shiqlar va xalq musiqa san'atining kelajak avlodlarni mumtoz musiqa merosi bilan yaqindan tanishtirish, havaskorlik tugaraklari, san'at saroylarida tashkil etilgan xalq cholg'u asboblari ansambllari faoliyatlarini keng yoyish musiqa san'ati rivojini va taraqqiyotini ta'minlash haqida so'z yetiladi.

Kalit so'zlar: Kelajak avlod, mumtoz musiqa, xalq cholg'u asboblari, ansambllar, tugarak, san'at, musiqa, zamonoviy kuy-qo'shiqlar.

РОЛЬ СОВРЕМЕННОЙ И НАРОДНОЙ МУЗЫКИ В ВОСПИТАНИИ БУДУЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные песни и народное музыкальное искусство, знакомство будущих поколений с классическим музыкальным наследием, широкое распространение деятельности кружков самодеятельности и ансамблей народных инструментов, организованных во дворцах искусств, а также обеспечение развития и прогресса музыкального искусства.

Ключевые слова: Будущее поколение, классическая музыка, народные инструменты, ансамбли, кружок, искусство, музыка, современные мелодии и песни.

THE ROLE OF MODERN AND FOLK MUSIC IN EDUCATING THE FUTURE GENERATION

Abstract. This article discusses contemporary songs and folk music art, introducing future generations to classical musical heritage, widely disseminating the activities of amateur groups and folk instrument ensembles organized in art palaces, and ensuring the development and progress of musical art.

Key words: Future generation, classical music, folk instruments, ensembles, circle, art, music, modern melodies and songs.

Kelajak avlodlarimizga bugungi kunda ko'plab musiqa axboroti ta'sir etayotgan bir davrda ular tinglayotgan musiqaning sifati va mazmuni haqida g'amxo'rlik qilish juda muhim

ahamiyatga ega. Yoshlar ko‘proq zamonoviy kuy-qo‘shiqlarga mehr qo‘ymoqdalar, shuningdek, bugungi kunda ular qalbidan o‘rin olgan: rok, pop, hamda yengil janrdagi musiqa turlari yosh avlod qalbini tula zabt etishga muvaffaq buldi.

O‘rni kelganda rok musiqa turiga alohida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Musiqa tarixidan bizga yaxshi ma‘lumki, ritm va musiqaviy intonatsiya xaqida har xil davrlarda murossasiz bahs, munozaralar yuritilgan. Bu siz musiqaning rivoji bo‘lmasligi tabiiy, albatta. Ammo, rok musiqa turiga nisbatan ayrim musobaqalarda qaltis fikrlar ham aytilmoqta. Shuni e‘tiborga olish lozimki, rok musiqasi tasodifan paydo bo‘lgani yuq, garchi shunday ko‘z yumub, inkor qilish noto‘g‘ri bo‘lar edi. Rok musiqa san‘ati ham aslida davrimizning muhim kashfiyotlaridan biridir. Lekin biz ham masalaning ikkinchi tomoniga o‘ta ma’suliyat bilan yondoshmoqliqni inkor etmaymiz.

Bugungi kunda turli nomdagi dastalarning soni ko‘payib ketdi. Ammo ularning barchasi ham san‘at yo‘lida fidoyilik ko‘rsata almadilar, san‘at hamda madaniyatimiz rivojiga o‘z hissalarini qo‘sha oladilar deb ishonch bildira olmaymiz. Ularning musiqiy ma‘lumotlariga, dunyoqarashlariga, ichki olamiga alohida e‘tibor bermoq, qo‘shiqchi shoirlar va bastakorlar aloqalarining mustahkam bo‘lishiga e‘tiborni qaratmoq lozim. Yangi tashkil etilgan dastalarning deyarli barchalari o‘z repertuarini zamonaviy, yengil yelpi musiqa va qo‘shiqlar bilan boyitishga harakat qilmoqdalar, bu yaxshi albatta ammo ularning g‘oyaviy va mantiqiy darajasi birinchi navbatda bo‘lishi kerak. Rok musiqasining ham ezgu g‘oyalar, yangi-yangi ritmlar, yorqin ohanglar bilan tuliq, umid va yaxshi istaklarni targ‘ib va tashviq qilishi shubhasiz.

«Kelajak avlodlarni mumtoz musiqa merosi bilan yaqindan tanishtirish, havaskorlik tugaraklari, san‘at saroylarida tashkil etilgan xalq cholg‘u asboblari ansamblari faoliyatlarini keng yoyish musiqa san‘ati rivojini va taraqqiyotini ta’minlaydi degan umiddamiz.

Mazkur ansamblarda nafaqat milliy qadriyatimiz, an‘analarimizni, qolaversa, qardosh xalqlar san‘ati va madaniyatini targ‘ib qilish vazifalari amalga oshirilmog‘i maqsadga muvofiqdir».[1,188c]. Bunda yoshlarimizning vatanparvarlik va baynalminallik tuyg‘ularini shakllantirgan va o‘stirgan bo‘lamiz. Jamoa bilan ishlash jarayonida yoshlar o‘z o‘zini boshqarish, o‘zgalar mehnatini qadrlash, bir-birlariga yordam qo‘lini cho‘zish kabi yaxshi ahloqiy sifatlarni o‘rganadilar. Ansamblarda yoshlar bir-birlari bilan yillar davomida do‘stlashadilar. Ular rahbar yordamida kuylarning bastakorlari haqida, usha kuyning yozilish uslubi haqida ma‘lumot oladilar, shu orqali o‘zlarining ma’naviy, madaniy rivojlantirib boradilar. Bundan tashqari o‘z ijrolari bilan o‘zlari, balki tinglovchiga ham estetik zavq bag‘ishlaydilar.

Musiqqa vositalari bilan ma'naviy, madaniy tarbiyalash jarayoni o'ziga xos xususiyat, emotsional ta'siri bilan ko'zga tashlanadi. Musiqqa san'atida ham g'oyaviylik birinchi o'rinda turadi. Bizning asosiy vazifamiz kelajak avlodlarimizni mazmunan yaxshi, yangidan yangi asarlar bilan boyitilishdan iborat bulmog'i lozim, bu borada qoraqalpoq xalq musiqalarining roli va ahamiyati juda katta.

Musiqqa san'ati yosh avlodlarimizning his tuyg'ulariga emotsional ta'sir ko'rsatadi, o'ziga hos badiiy obrazlar orqali xilma-xil ruhiy holat va kayfiyatlarni ifoda etadi. Ya'ni barcha o'quvchilarni musiqqa san'atiga jalb etish, g'oyaviy dunyosini har tomonlama takomillashtirish nazarda tutiladi.

Kelgusi bo'lajak avlodlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib yetishuvi uchun yuksak badiiy did va madaniy malaka hosil qilish, bularni albatta ma'naviy, madaniy tarbiyasiz amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham bizning Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan kelajak avlodlarni ma'naviy, madaniy estetik tarbiyasiga katta ahamiyat va e'tibor berilishi haqida a'loxida etibor qaratdilar.

Ansambllar repertuarlariga kiritilgan asarlar «Tohir va Zuxra» dramasidan «Otmagay tong», «Qashqarchai mustozodi navo», «Soqinamai mustazodi navo», Rost maqomidan «Soqanomai saftikalon» kabi asarlar kiritilgan. Bunday tashkil qilingan badiiy va havaskorlik to'garaklari o'quvchilarni estetik tarbiyalashda asosiy omil bo'lib, u o'ziga xos bir ijodiy maktab bo'lib kelmoqda. Chunki bu jamoalarda oddiylikdan murakkablikga, ya'ni mo'taxassislikka borib yetadilar.

Qoraqalpoq xalq kuylari: «Nazlining», «Nalish», «Bes perde», «Nigarim», «Ayqan qiz», «Barmayman sanem», «Jaqsiraq» va yana boshqalar.

Hamma o'tkazilayotgan kurik musobaqalar o'quvchilarimizning orasida ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu tanlovlarni o'tkazishning asosiy maqsadi o'quvchilarni yuksak ma'naviy, madaniy-badiiy didini, ijrochilik mahoratini o'stirish va madaniy qadriyatimizni bilish malakasini shakllandirishdir.

Jamoadi o'quvchilar ham zavq oladilar, ham tomoshabinga zavq bag'ishlaydilar, ya'ni o'zi ta'sirlansa, ikkinchi tomondan u zavq berib ta'sirlantiradi. Bu yerda ijrochi-o'quvchilar o'z san'atini ustozlarga qiyoslaydilar, izlanadilar va ijod qiladilar.

O'qitish jarayonida biz o'quvchilarni san'atning har xil turlari bo'yicha, ya'ni o'zlari yoqtirgan turlari bo'yicha, bir-birlari bilan baxslashganliklarini, o'z mahoratlariga qoyil darajada ishonch hosil qilganliklarini ko'ramiz.

Bu o'tkazilayotgan tadbirlarning yana bir yaxshi tomoni shundaki, qoraqalpoq xalq milliy san'atini, ya'ni xalq og'zaki-milliy professional san'atining takomillashtirishga qo'ygan hissasidir va uni yoshlar o'rtasida keng targ'ibot ishlari olib borayotganidadir. Qoraqalpoq xalqi boy va ajoyib hususiyatlarga ega bo'lgan ijodiy xalq. Bu ijodda xalqning hayoti, fikr yodi va intilishlari aks etib turadi. Xalq juda ajoyib kuylarni-qo'shiqlarni og'zaki saqlab kelmoqda. Bu xalqimizning xazinalarini asrlar bo'yi avloddan avlodga o'tib silliqanib, jilolanib xalqning turmush sharoitlari o'zgarishlariga qarab yangillangani holda, ularning eng yaxshilari bizning davrimizgacha yetib kelmoqda. Bunday asarlarimizning ko'pi hozirgi kunda ham xalqimizning musiqa hayotida o'z urnini yuqotmagan va o'quvchi-yoshlarimizni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga egadur.

REFERENCES

1. Azimov.B.G. *Navstvennoye vospitaniye molodeji sredstvami narodnoy muziki na materiale muzikalnoy samodeyatelnosti PTU Respubliki O'zbekistan: diss-kand, ped nauk-T; TDPI 1991, 188 s.*
2. Jiyenbaevich M. I. The evolution of music pedagogy of the karakalpak people: Historical and theoretical aspects //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – T. 11. – №. 10. – C. 27-32.
3. Jiyenbaevich M. I. Competence-based approach in higher musical and professional education //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 4. – C. 42-47.
4. Moyanov I. TRAINING AND DEVELOPMENT OF ART PERSONNEL //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 65-69.
5. Jiyenbaevich M. I. COMPETENCE-BASED APPROACH IN HIGHER MUSICAL AND PROFESSIONAL EDUCATION //PROMINENCE OF INFORMATION BASES& MEDIA ASSESSMENTS IN THE POST CONFLICT MARKETING ENVIORNMENT.
6. Моянов Ы. Д. ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚИ МУСИҚИЙ ПЕДАГОГИКАСИНИНГ ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ: Моянов Ыкласбай Жийенбаевич Ўзбекистон Давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали, «халқ ижодиёти» кафедраси в. в. б доценти. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 5.

7. Моянов Ы. Д. ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚИ МУСИҚИЙ ПЕДАГОГИКАСИНИНГ ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 5.